

**GINJKO BILOBA L. O'SIMLIGINING TARQALISHI VA
AHAMIYATI**

Andijon Davlat Pedagogika talabasi

Sodiqboyeva Rayhon

Annotatsiya: *Ginkgo biloba L.* o'simligining tarqalishi, morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va inson hayotidagi ahamiyati yoritilgan. *Ginkgo biloba L.* tibbiyotda yuqori qadrlanib, asab tizimini mustahkamlash kabi xususiyatlari bilan mashhur. Shu bilan birga, xalq tabobatida yurak-qon tomir kasalliklarida qo'llaniladi.

Абстрактный: Освещены распространение, морфологические особенности, химический состав и значение *Ginkgo biloba L.* в жизни человека. Гинкго билоба *L.* высоко ценится в медицине и известен своими свойствами, такими как укрепление нервной системы. В то же время его используют в народной медицине при сердечно-сосудистых заболеваниях.

Abstract: The distribution, morphological characteristics, chemical composition and importance of *Ginkgo biloba L.* are discussed. *Ginkgo biloba L.* is highly valued in medicine and is known for its properties such as strengthening the nervous system. At the same time, it is used in folk medicine for cardiovascular diseases.

Kalit so'zlar: *Ginkgo biloba, O'simlikning tarqalishi, Ekologik ahamiyat, Tibbiyotda qo'llanilishi, Xalq tabobati, Miya qon aylanishi.*

Ключевые слова: Гинкго билоба, Распространение растений, Экологическое значение, Медицинское применение, Народная медицина, Мозговое кровообращение.

Keywords: *Ginkgo biloba, Plant distribution, Ecological significance, Medical use, Folk medicine, Cerebral circulation*

Ginkgo biloba — dunyodagi eng qadimiy daraxtlardan biri bo'lib, taxminan 270 million yil oldin paydo bo'lgan. Bu o'simlik dinozavrlar davridan omon qolgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yagona ochiq urug‘li tur hisoblanadi. Ginkgo biloba biologik xilma-xillik nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u Ginkgoaceae oilasining yagona vakili sifatida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ushbu o‘simplikning noyob yaproq tuzilishi, ekologik chidamliligi va shifobaxsh xususiyatlari uni ilmiy tadqiqotlar va amaliyot uchun muhim obyektga aylantirgan. Hozirda ginkgo tibbiyat, farmakologiya, ekologiya va manzarali bog‘dorchilikda keng qo‘llaniladi. Xusan, uning barglaridan olingan ekstraktlar xotira va asab tizimi faoliyatini yaxshilash, qon aylanishini normallashtirish hamda antioksidant xususiyatlari bilan mashhur.

Ginkgo (Ginkgo biloba) — ochiq urug‘li o‘simpliklar bo‘limining gingkodoshlar oilasiga mansub hozirgi yagona vakili. Daraxtning bo‘yi 40 m gacha, diametri 1 m gacha; yosh niholi ba’zi nina bargli daraxtlarga o‘xshab ketadi, ammo borabora tashqi ko‘rinishdan terak tusini oladi. Barglari bandli, yelpig‘ichsimon, o‘rtasida o‘yig‘i bor, kuzda to‘kiladi. Ginkgo ikki uyli o‘simplik, erkak va urg‘ochi gullari kichikroq ko‘chalalarga to‘plangan. Urug‘i yumaloq, danakli mevaga o‘xshaydi. Mevasi va urug‘i yeyiladi. Jan. Xitoyning ba’zi joylaridagina yovvoyi holda o‘sadi. Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi. O‘rta Osiyoda ginkgoning barg va yog‘och qoldiklari yuqori perm va trias davriga tegishli yetqiziqlarda topilgan. Hududda ginkgoning 15 dan ortiqturi o‘sgan. Jumladan 2 turi Jan. O‘zbekistonda, Tojikiston va Turkmanistonda o‘sganligi aniqlangan. Ginkgoning bir qancha turlari Shim. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va deyarli qamma davlatlarda yura, bo‘r va uchlamchi davr qatlamlaridan topilgan.

MDH hududida ginkgo biloba Qrimda, Kavkazning Qora dengiz qirg‘oqlarida o’stililadi. Ginkgo respublikamizning Toshkent (Botanika bogi), Samarqand, Andijon kabi shaharlari parkida osadi. Bu yirik daraxtning boyi 30-40 m ga etadi. Bargi bandli, barg plantinkasi elpigichni eslatadi. Ortasi biroz tilingan bu barglar har yili qish mavsumida to‘kiladi. Ginkgo biloba ikki uyli osimlik, otalik qubbachasi boshqa o‘simplikda sirgasimon shaklda bo‘ladi. Shamol yordamida changlanadi. CHangi bevosita urugkurtakda osib, chang naychasi hosil qiladi. Urug‘lanish oldidan bu naychada ikkita yirik, xarakatchan spermatozoid hosil boladi. Bu spermatozoid naycha orqali tuxum hujayraga borib qoshiladi. Ginkgoning rivojlanish sikli sagovniklarning

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanish sikliga oxshaydi, ammo vegetativ organlari topgullarining tuzilishi jihatidan ulardan jiddiy farq qiladi. Ginkgo biloba qadimiy va noyob daraxt bo‘lib, u nafaqat botanik jihatdan qiziqarli, balki ekologik, tibbiy va iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Tibbiyotdagi ahamiyati; Ginkgo biloba barglari va ekstraktlari ko‘plab kasalliklarning oldini olish va davolashda ishlatiladi: Miya qon aylanishini yaxshilash: Ginkgo ekstraktlari qon tomirlarini kengaytirib, miya hujayralariga kislorod yetkazib berishni yaxshilaydi. Xotira va kognitiv funksiyalarni oshirish: Bu o‘simplik Altsgeymer va boshqa demensiya turlarining oldini olishda qo‘llaniladi. Asab tizimiga ijobiy ta’siri: Stress va depressiya belgilarini kamaytirishga yordam beradi. Ko‘z sog‘lig‘iga foydali: Ginkgo antioksidant xususiyatlari tufayli ko‘z kasalliklarini oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Oqyo’lova Gulnoza . "Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar "nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferentsiyasi
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ginkgo>
3. Z.A. Yusupova “O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnali
4. 4. "O’zbekistonning foydali o‘simpliklari." Guliston Davlat Universiteti, o‘quv-uslubiy majmua, 2024.